ERKAKLARDA UROLOGIK VA SEKSUAL BUZILISHLARNING ETIOLOGIYASIDA JINSIY-SHERIK MUNOSABATIGA BOG'LIQLIKNING O'RNI SIFATIDA

Dursunov S.A.

РОЛЬ ОТНОШЕНИЙ С СЕКСУАЛЬНОЙ ПАРТНЁРШЕЙ В ЭТИОЛОГИИ УРОЛОГИЧЕСКИХ И СЕКСУАЛЬНЫХ РАССТРОЙСТВ У МУЖЧИН

Дурсунов С.А.

THE ROLE OF SEXUAL PARTNER RELATIONSHIPS IN THE ETIOLOGY OF UROLOGICAL AND SEXUAL DISORDERS IN MEN

Dursunov S.A.

Toshkent davlat tibbiyot universiteti

При урологических и сексуальных нарушениях у мужчин взаимоотношения с сексуальной партнёршей не оказывают негативного влияния с точки зрения органических расстройств; однако при психогенных сексуальных дисфункциях установлена взаимосвязь между личностно-типологическими и эмоциональными характеристиками женщины и уровнем её вовлечённости в тревожные переживания, связанные с состоянием сексуального партнёра.

Ключевые слова: *урологические и сексуальные нарушения у мужчин, взаимоотношения с сексуальной партнёршей, личностно-типологические особенности, эмоциональное состояние, чувство вовлечённости.*

In male urological and sexual disorders, although the relationship with the sexual partner does not have a negative impact in terms of organic dysfunction, In psychogenic sexual disorders, it has been determined that the woman's personality-typological and emotional state is associated with her sexual partner's anxiety.

Key words: *Urological and sexual disorders in men, sexual partner relationship, typological characteristics, emotional state, sense of involvement.*

So'nggi o'n yillarda erkaklardagi seksual buzilish muammosi nafaqat urologiya va andrologiya, balki klinik psixologiya va seksologiya fanlarining dolzarb tadqiqot obyektiga aylanib bormoqda. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma'lumotlariga ko'ra, erkaklarda uchraydigan erektil disfunktsiya, libido pasayishi, ejakulyatsiya buzilishlari kabi holatlar ko'pincha multifaktorial xarakterga ega bo'lib, ularning kelib chiqishida biologik, psixologik va ijtimoiy omillarning murakkab o'zaro ta'siri kuzatiladi [3].


Tibbiy nuqtai nazardan, erkaklardagi seksual buzilishlar ko'pincha yurak-qon tomir kasalliklari, endokrin tizim disfunktsiyalari, nevrologik holatlar hamda farmakologik ta'sirlar bilan izohlanadi. Biroq klinik amaliyot va empirik tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, faqat somatik omillar asosida tushuntirilgan yondashuvlar ko'plab holatlarda kutilgan terapevtik samarani bermaydi. Bu esa seksual disfunktsiyalarning psixologik mexanizmlarini, xususan, shaxslararo munosabatlar kontekstida chuqurroq o'rganish zaruratini yuzaga keltiradi [4].

Psixologik yondashuv doirasida erkaklardagi seksual buzilishlarning shakllanishida jinsiy sherik bilan bo'lgan munosabatlarning sifati, emotsional yaqinlik darajasi, rollar muvozanati, o'zaro kutishlar va kommunikativ disfunktsiyalar muhim determinant sifatida qaraladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, jinsiy sherikning munosabatdagi roli – ya'ni **qo'llab-quvvatlovchi, tanqidchi, nazorat qiluvchi yoki passiv pozitsiyas**i – erkakning jinsiy o'zini anglash darajasi, performansga oid xavotiri va jinsiy faoliyatga bo'lgan ishonchiga bevosita ta'sir ko'rsatadi [2]. Ayniqsa, juftlik munosabatlarida surunkali nizolar, affektiv masofalanish va psixoseksual mos kelmaslik holatlari erkaklarda psixogen xarakterdagi seksual buzilishlarning yuzaga kelish xavfini oshiradi. Muallif Kratochvil takidlashicha: "ko'plab jinsiy buzilishlar biologik va ijtimoiy omillarning murakkab ta'siriga borib taqaladi" deb takidlaydi. Bu omillar konstitutsional-fiziologik kuch-quvvatdan tortib, axloq-etika normalari, ong osti motivatsiyalari, fobiya komplekslariga qadar bo'lgan keng spektrni o'z ichiga oladi, va bu sababdan faqat simptomatik yondashuv yetarli bo'lmaydi. Nikoh ichidagi ziddiyatlar va stress – ko'plab bemorlarda psixologik omillar, xususan yaqinlik va o'zaro tushunmovchiliklar jismoniy simptomlardan ham kuchliroq ta'sir ko'rsatishini izohlagan [1].

Zamonaviy seksologik va klinik-psixologik nazariyalarda (Masters & Johnson, Helen Singer Kaplan, shuningdek, kognitiv-xulqiy va tizimli oilaviy terapiya yondashuvlarida) seksual disfunktsiya individual muammo sifatida emas, balki juftlik tizimidagi o'zaro ta'sir mahsuli sifatida talqin qilinmoqda. Bu yondashuv erkaklardagi seksual buzilishlarni diagnostika va korreksiya qilish jarayonida jinsiy sherik rolini hisobga olishning ilmiy va amaliy ahamiyatini yanada oshiradi. Shu munosabat bilan, erkaklardagi seksual buzilishlarning kelib chiqishida jinsiy sherik ro'lining munosabatga bog'liq psixologik xususiyatlarini o'rganish, tibbiy va psixologik fanlar integratsiyasi asosida kompleks yondashuvni ishlab chiqish hozirgi davrning dolzarb ilmiy-amaliy muammolaridan biri hisoblanadi.

Tadqiqotimizda ishtirok etgan bemor larda quyidagi urologik va seksual funktsional buzilishlar aniqlandi: varikotsele: 12 bemor (20%), prostatit: 13 bemor (26%), psixogen erektil disfunktsiya (ED): 17 bemor (34%). Bemorlar 20-45 yoshdagi oilali erkaklar bo'lib, tadqiqotda qatnashishga ixtiyoriy ravishda rozi bo'lganlardir. Klinik suhbat, tekshiruv jarayonining bir qismi sifatida o'tkazildi va bemorlarga qo'llaniladigan psixodiagnostik tekshiruv metodlar bilan tanishtirilib o'tkazildi. Mualliflik - blits so'ro'vnomasi, xavotir va depressiya darajasini baxlash uchun HADS - ekspress diagnostikasi, shaxs aksentuasiyasini baholash maqsadida Leongard-Shimishek metodikasi va munosabatlarni differensial baholash (MDB) metodikasi otkazildi.

Respondentlarning tana va jinsiy salomatligi, oilaviy-jinsiy munusabatlar va davolanishga oid ishonch-umid darajalarini baholash maqsadida mualliflik (Blits) so‘rovnomasi o‘tkazilib, ushbu so‘rovda 3 ballik tizim bilan baholandi. Maksimal 24 ball (ayollarda 21 ball) yuqori qiniqmaslik ve bezovtalik mavjudligini ifodalasa, minimal 0-3 ballgacha bemorda bezovtalik mavjud emasligini ifodalaydi. Mazkur mualliflik-so’rovnoma natijalarini biz quyidagi sabab omillarga tayanib izohlashimiz mumkin: **Birinchi omil** – organik tabiatli tashxislarning (varikotsele, prostatit) dinamikasida erkaklarda tabiiy holda og’riq, bezovtalik va libido hissining tushib ketishiga olib kelsa, **ikkinchi** omili, respondentning – xarekteriologik (aksentuasiyasi) dan kelib chiqib kasallikga bo’lgan psixoemotsional munosabat darajasida ekanlgini tahmin qilishimiz mumkin. **Uchinchi omil** sifatida esa, juftlarning intim-jinsiy munosabatdagi konstitusiyalarining nomuvofiqligi bilan ifodalashimiz o’rinlidir (1-rasm).




1-rasm. So’rovnoma natijasi tasnifi.

Tuzilgan savollar va ularnnig natijasini tahlil qilinganda, dastlabki qayt etilgan savollar asosan urologik bezovtalik va organik tabiatli kasallikka bo‘lgan munosabat o‘rin olgan bo‘lsa, uning davomidagi savollar esa, psixologik va jinsiy muammolarning sababi sifatida partner munosabatlari o‘rin olgan. Xulosa sifatida shuni aytish mumkin-ki, **urologik kasalligi** mavjud erkaklarda, ularning umumiy bezovtalik psixologik jihatdan pastroq ekanligi, biroq, 5-6-7-8 savollar **jinsiy buzlish tabiatini** o‘lchoviga hos so‘rovlar natijasi aynan bemor psixoemotsional holati va partner munosabtlarida - o‘rta va yuqori darajali bezovtalik va noqulaylik mavjudligini ko‘rishimiz mumkin.

Urologik va jinsiy buzilishlar bilan og’rigan oilali (jinsiy sherikli) erkak bemor **ayollarining psixoemotsional hususiyatlari va sheriklik munosabatlaridagi** holatlar namoyon bo‘lishining statistik natijalariga e’tibor qaratdik. Urologik va jinsiy kasalliklar bilan og’rigan erkak bemorlarning ayollarida o’tkazilgan tadqiqotda qo’llanilgan tekshiruv usullari asosan, ayollarning erlariga (sheriklariga) nisabtan ijtimoiy-psioxologik munosabat shakli, o’zlarida kechayotgan psixoemotsional holat va shaxsning aksentuatsion xususiyatlarini o’rganib chiqildi.

O’tkazilgan blits-so’rovnoma natijalariga asosan turmush o’rtog’ining (jinsiy sherigi) tashxisi bo’yicha 24 nafar (21,8%) ayollarda “bezovtalik yo’q”ligi, keyingi 52 nafar (47,3%) ayollarda “**yengil bezovtalik va dahildorlik hissi** mavjudligi” aniqlangan. 30 nafar (27.3%) **sinlauvchilarda “o’rta darajali bezovtalik**” mavjudligi va 4 nafar (3.6%) respondentlarda esa “**yuqori darajali bezovtalik**” holati aniqlangan (2-rasm).



2-rasm. Blits-so’rovnoma natijalari.

Blits so’rovnomaning natijasi bu ayollarning jinsiy erlariga (sherik) nisbatan qay daraja e’tiborligi, dahildorligi va o’z salomatligidan havotirlanish darajalari aks etganlgini ko’rishimiz mumkin. Demak, o’tkazilgan birlamchi so’rovnoma natijalari ayollarning 52 nafarida **yengil darajadagi dahildorlik**, 34 nafarida esa **o’rta va yuqori darajada** erlaridagi jinsiy buzilishiga dahildorlik va buning fonida turmushiga nisbatan xavotir hissiyotining mavjudligini ko’rsatmoqda (jadval).

Tatqiqootimizning muhim qismlaridan biri hisoblangan erkak va ayol respondentlarning shaxs tiplari bo’yicha bog’liqliklarni analiz va tahlil qilindi. Bunga binoan dastlab blits so’rovnoma bo’yicha shaxs aksentuasiyalar natijalari bilan, aksariyati 99% ishonch bi-

lan aloqadorlik mavjudlgi aniqlandi. Bunga asosan blits so‘rovnomasi (somatik va psixoseksologik funksiyani baholash) bo‘yicha gipertim tip bilan kuchli aloqadorlik (r=0,372, p<0,01) mavjutdir. Buning izohi esa, gipertim tip - faol, optimistik, yaxshi qobiliyatga va xar qanday vaziyatdan chiqib keta oladigan aqil egalaridir. Juda kamdan kam g‘azablanadilar. Biroq bunday holat bilan mijozlarda somatik va psixoseksologik muammo kuzatilmaydi deganini ifodalamaydi. Demak ushbu natija bunday tiplarda jinsiy sherigi bilan bog’liq bezovtalik, havotir va umidsizlik holati kuzatilishini asoslab bermoqda.

Jadval

Erkak va ayol respondentlarning blits so’rovnomasi bo’yicha boshqa metodikalar bilan korelatsion bog’liqligi

	Gipertim	Distim	Xayajonlanuvchi	Pedant	HADS-havotir	MDB_ijobiy
Blits	,372(б)	,402(б)	,494(б)	-,254(б)	,292(б)	-,191(a)

Izoh. a – p<0,05, б – p<0,01.

Distim tip shkalasi bilan blits so’rovnoma test natijasida (r=0,402, p<0,01) o’zaro kuchli bog’liqlik mavjudtir. Buning izohi sifatida distim tipdagi shaxs psixoemotsional jihatdan beqaror tip, ko’proq kayfiyat buzlishlari, depressiyaga moyil tiplar deb takidlanadi. Shuning uchun blits so’rovnoma natijasi bilan yuqori ishonchlilik va aloqadorlikga egadir. Yani ipoxondrial simptomlar yoki seksual buzlishlardan- jinsiy omadsizlikni havotirli kutish sindromi “CTOCH” kabi jinsiy va somatik sindromlar ushbu tipdagilar bilan bog’liq bo’lishligini ifodalaydi.

Xayajonlanuvchi tip shkalasi bilan blits so’rovnoma natijasida eng kuchli aloqadorlik (r=0,494; p<0,01) mavjudligini ko’rishimiz mumkin. Demak xavotirlanuvchi tiplarda shaxs yoki bemorda kuzatilishi mumkin bo’lgan somatik va jinsiy buzilshlarda yuqori reaktivlik bilan havotirlanish, emotsional beqaror, ekstravert tipga tegishli ekanligini asoslamoqda. Ushbu natijaning yuqoriligi blits so’rovnomaning asil obyektlardagi hususiyatni ishonchlilik bilan o’lchovchi mezonga ega ekanligini ko’rsatmoqda.

Pedantik tip shkalasi bo’yicha blits so’rovnomasi bilan teskari kuchli bo’g’liqlik (r=-0,254; p<0,01) mavjudligi aniqlandi. Bu shuni anglatadiki, pedantiklik darajasi ortgan sari respondentlarda somatik va jinsiy munosabatga oid vaziyatli bezovtaliklar darajasi pasayib boradi. Bunday shaxslar odatda yuqori nazoratga ega bo‘ladi. Tartib, aniqlik va rejalilikka intilish ularning psixofiziologik reaksiyalarini boshqarishga yordam beradi. Bu holat somatik reaktsiyalar (tana tarangligi, noqulay sezgilar, tezlashgan puls) ni va emotsional impulsivlikni kamaytiradi, natijada somatik va jinsiy vaziyatlardagi xavotirning oshib ketishiga yo‘l qo‘ymaydi.

HADS-havotir shkalasi bilan blits so’rovnoma natijasida (r=0.292; p<0,01) ham o’rtacha aloqadorlik mavjud. Bu yerda ham respondentlarda somatik va jinsiy munosabatdagi bezovtaliklar havotir shkalasi bilan ham 99% ishonchlilik bilan bog’liqlik mavjudligi aniqlanganligini qayda takidlashimiz mumkin.

MDB-ijobiy shkalasi bilan blits so’rovnoma natijasida teskari bog’liqlik (r=-0,191; p<0,05) mavjudligi aniqlandi. Mazkur natija, munosbatlarni differensial baholashning ijobiy ko’rsatkich natijasi oshgan sayin respondentarda somatik va psixoseksual bezovtalik holatlarini kamayganini anglatmoqda. Demak, bunga ko’ra juft sheriklar munosabatlarini ijobiy baholashganda, ularda (odatda erkaklarda) urologik va jinsiy hastalaliklar mavjud bo’lsada, ushbu somatik bezovtalik va emotsional havotirlar ularda yuqori emasligi natijasini ko’rsatmoqda.

Xulosa

1. Mazkur tadqiqot natijalari blits so‘rovnomaning somatik va psixoseksual holatlarni baholashda ishonchli diagnostik vosita ekanligini tasdiqlaydi. Birlamchi so‘rovnoma ma’lumotlari ayollarda jinsiy sherikdagi buzilishlarga nisbatan turli darajadagi dahldorlik va emotsional xavotir mavjudligini ko‘rsatdi, bu esa jinsiy disfunktsiyalarning juftlik darajasida psixologik rezonansga ega ekanligini asoslaydi. Korrelyatsion tahlil natijalariga ko‘ra, blits so‘rovnoma ko‘rsatkichlari gipertim, distim va xayajonlanuvchi shaxs tiplari bilan musbat va statistik ahamiyatli bog‘liqlikka ega (p<0,01). Ayniqsa, xayajonlanuvchi tip bilan aniqlangan kuchli aloqadorlik somatik va psixoseksual buzilishlarda emotsional reaktivlik va havotir mexanizmlarining yetakchi rolini ko‘rsatadi. Distim tip bilan bog‘liqlik esa depressiv fon, ipoxondrik tendensiyalar va jinsiy omadsizlikni havotir bilan kutish holatlarining ahamiyatini tasdiqlaydi. Pedantik shaxs tipi bilan aniqlangan teskari bog‘liqlik (p<0,01) yuqori darajadagi nazorat va rejalilik somatik hamda psixoseksual bezovtaliklarni kamaytiruvchi himoya omili ekanligini ko‘rsatadi. Shuningdek, blits so‘rovnoma natijalari HADS-havotir shkalasi bilan musbat, MDB-ijobiy shkalasi bilan esa teskari statistik bog‘liqlikni namoyon etdi, bu esa juftlik munosabatlarini ijobiy baholash psixoseksual bezovtalik darajasini pasaytirishini anglatadi.

2. Umuman olganda, tadqiqot natijalari jinsiy buzilishlarni baholashda shaxs aksentuatsiyalari, havotir darajasi va juftlik munosabatlari sifatini kompleks yondashuv asosida hisobga olish zarurligini asoslaydi. Olingan xulosalar klinik psixologiya va psixoseksual terapiya amaliyotida differensial diagnostika va individual terapevtik strategiyalarni ishlab chiqish uchun ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Adabiyotlar

1. Кратохвил С. Психотерапия семейно-сексуальных дисгармоний. Пер. с чешск. М Медицина 1991.

2. Bergeron S, Pâquet M. Perceived partner responsiveness is associated with sexual well-being in couples with genito-pelvic pain 628-638. doi: 10.1037/fam0000829. Epub 2021 Mar 18

3. Sexual health – WHO’s working definition of sexual health. WHO 2006.

4. Stephen W. Leslie; Thushanth Sooriyamoorthy. Erectile Dysfunction. 2024;9.

ERKAKLARDA UROLOGIK VA SEKSUAL BUZILISHLARNING ETIOLOGIYASIDA JINSIY-SHERIK MUNOSABATIGA BOG'LIQLIKNING O'RNI SIFATIDA

Dursunov S.A.

Erkaklardagi urologik va jinsiy buzilishlarda jinsiy sherik bilan bo'lgan munosabatlari organik buzlish jihatdan salbiy ta'siri bo'lmasada, psixogen jinsiy buzilishlarda ayolning shaxs- tipologik va emotsional holatining, jinsiy sherigidagi bezovtaligiga aloqadorlik mavjudligi bilan aniqlangan.

Kalit so'zlar: *Erkaklardagi urologik va jinsiy buzilishlar, jinsiy-sherik bilan munosbat, tipologik hususiyatlar, emotsional holat, dahildorlik hissi.*

Mualliflar haqida ma'lumot

Dursunov Sardor Axmat o'g'li, TDTU pedagogika va psixologiya kafedrasi o'qituvchisi. Tel: +998998760653, e-mail: sardordursunov@93outlook.com, https://orcid/org/ 0009-0005-0192-6539